

**Abdulla Oripovning tarjimonlik mahorati  
(Lesya Ukrainkaning “Mog‘oralarda” dramasi misolida)**

**R. Zaripova, O'DJTU mustaqil izlanuvchi**

**Annotatsiya.** Respublikada xizmat ko‘rsatgan jurnalist Ra'no Zaripovaning “Abdulla Oripovning tarjimonlik mahorati” ilmiy maqolasi ukrain va o‘zbek adabiyoti o‘rtasidagi go‘zal ko‘priklardan biri deyilsa arziydi. Lesya Ukrainka go‘zal, erkparvar, ozodlikka chorlovchi asarlari bilan faqatgina ukrain adabiyotida emas, balki butun jahon adabiyotida ma'lum-u mashhur. Ukrainada bolalarga atab yozilgan asarlar uchun Lesya Ukrainka nomidagi Davlat mukofoti beriladi.

Ushbu ilmiy maqola ikki yo‘nalishdan iborat bo‘lib, uning birinchi yo‘nalishida ukrain adabiyotining yetakchi namoyondasi **Lesya Ukrainkaning “Mog‘oralarda” dramatik poemacining o‘ziga xos xususiyatlari** haqida fikr yuritiladi. Lesya Ukrainka dramatik poemalarining aksariyati tarihiy temada yozilgan bo‘lib, ularda ham prozaning ham she'riyatning o‘ziga o‘ziga xususiyatlari umumlashgan.

**Muallif va mutarjimlarning frazeologik birlik, arxaik va sinonim so‘zlarni qo‘llashdagi uslubiy mahorati nomli** ikkinchi bo‘limda dramatik poema uslubi bilan tanishish jarayonida shoir Abdulla Oripovning tarjimonlik mahorati haqida tessavurga ega bo‘lish mumkin. Tarjima jarayonidagi yutuq va kamchiliklar o‘z ifodasini topadi. Dramatik asar tarjimasining lirik asarlar tarjimasidan farq qiluvchi xususiyatlari, muallif va mutarjim mahorati qiyosiy tahlillarda shoiraning “Mag‘oralarda” asari tarjimasi orqali ochib beriladi.

**Kalit so‘zlar:** muallif, talqin, tarjima, mutarjim, uslub, frazeologik birlik, arxaik va sinonim so‘zlar.

**Lesya Ukrainkaning “Mog‘oralarda” dramatik poemsining o‘ziga xos xususiyatlari.** Lesya Ukrainka dramalarining aksariyati uzoq o‘tmish mavzuida yozilgan tarixiy asarlar bo‘lib, voqyea – hodisalarga realistik bo‘yoq berilgan. Tarjimonlar lirik she'rni tarjima qilishga nisbatan tarixiy-dramatik asarlarni tarjima qilishda ancha murakkablikka duch kelishlari tabiiy. Chunki, shoira tasvirlagan tarixiy davrni, uning o‘ziga xos so‘z va iboralari hamda atamalarini ham o‘rganib chiqishga to‘g‘ri keladi.

Shoiraning Abdulla Oripov tomonidan o'zbek tiliga o'girilgan "Mag'oralarda" dramatik-poemasi, ham prozani ham she'riyatni xususiyatni o'zida mujassamlashtirgan. Dramatik-poemada sahna tasvirlari, tushuntirish, izohlar, harakatlar nasriy yo'l bilan, asar qahramonlarining so'zlashuvlari esa oq she'r usulida yozilgan.

Shoiraning "Katakomba" – "Mag'oralarda" dramatik-poemasi uzoq o'tmish mavzusida yozilgan bo'lsa-da, shoir zamona bilan uyg'unlashib ketgan. Lesya Ukrainka bu asarida jangovor san'atkor bo'lib maydonga chiqadi va xristianlikning endigina paydo bo'layotgan davridagi quldorlik va ekspluatatorlik mohiyatini ochib tashlaydi.

Asar qahramoni Neofit qul (Neofit – biror diniy mas'habni yangi qabul qilgan kishi) isyon ko'targan mazlumlarning ozodlikka chiqish yo'llarini izlaydi. U qullikdan ozod bo'lib, kelajakda baxtiyor, adolatli jamiyatda yashashni orzu qiladi. Shu maqsadda u Rim hokimligining ta'qibidan qochib, katta umidlar bilan Rim yaqinidagi yer osti g'orlari-mag'oralarga yashirin ravishda to'planayotgan dastlabki xristian jamoasiga kelib qo'shiladi. Unga aytishlaricha xristian jamoasida qul va quldorlarga bo'linish yo'q emish, odamlar ozod va erkinlikda hayot kechirar ekan. Biroq, Neofitning bu maskanga kelib eshitgan dastlabki so'zi ham qullik haqida bo'ladi. Sabr-toqati tugab ozodlik, erk istab kelgan Neofit ruhoniya duch keladi.

Ruhoniyning aytishicha, bu dunyoda azoblangan qul narigi danyoda jannatiy bo'lib yasharmish.

Ozodlikka erishgaysan shubhasiz inim,  
Bosh egsang bas dinu imonga, aziyatga.

Neofit unga javoban shunday deydi:

Taqsim, qulda takabburlik qayda bo'lsin  
Mayli, deylik panohimiz yolg'iz xudodir.  
Lekin, ayting u dargohga qachon yetgaymiz  
Birov uni yerda deydi, birov osmonda...?<sup>1</sup>

Shu tariqa asarga sindirilgan chuqur falsafiy mazmun asarning asosiy qahramonlari Neofit qul bilan ruhoni yortasidagi dialoglarda o'zining yorqin badiiy ifodasini topadi.

<sup>1</sup>Украинка Леся, Танланган асарлар, Т: "Фафур Фулом" нашириёти, Т, 1972 йил. 79 бет

**Muallif va mutarjimlarning frazeologik birlik, arxaik va sinonim so'zlarni qo'llashdagi uslubiy mahorati.** Tarixiy dramada tabiiy-ki, arxaik so'zlar ko'p qo'llaniladi. Uni ekvivalenti ikkinchi tilda bo'lmasligi tarjimani murakkablashtiradi.

Asarda qadimgi Rimga xos so'zlar, etnik xususiyatlar va arxaik so'zlar mo'l-ko'l ishlatilgan.

Har qanday millatning, xalqning yoki biror bir tilning faqat o'zigagina xos bo'lgan so'zları bor. Ularni ikkinchi bir tilga tarjima qilish ancha qiyin. Masalan: qadimgi Rimda boy zodagonlarni, oqsuyaklarni "patritsiy"<sup>2</sup>, hyech qanday huquqi bo'lмаган tabaqalarni "plebei", qadimgi Rim askarlari boshliqlarini va imperatorlarning imtiyozli shaxsiy qorovulligidagi lashkar jangchisini "pretorianets" deyilgan. Tarjimada buni shunday o'zicha qo'llasa, kitobxon tushunmasligi mumkin. Shuning uchun tarjimon bu so'zлarning o'zbek tilidagi ekvivalentini, ya'ni o'zbek tilidagi muqobilini qo'llagan. "Patritsiy"ni – mansabdar ruhoniylar, zodagonlar; "plebei"ni – qullar, huquqsizlar, deya muqobilini qo'llagan.

Asardagi sinonim so'zlar, frazeologik birliklar, o'xshatishlar tarjimada qanday ifodalangan ekan? Alovida misollarda ko'rib chiqamiz.

**Asliyatda:** Smolkn!

Apostol tnam na blago zapovedal:  
«Pust jenщina na sboriщах molchit»<sup>3</sup>.

So'zma so'z tarjimada jenщina – ayol deb qo'llansa bo'ladi. Ammo, shu so'zning sinonimi bo'lgan ayollarni kamsitishda kuchli jaranglovchi so'zni tanlagan. "Zaifa" so'zini qo'llab ta'sir kuchini oshirgan.

Bas qil deyman, ulug' harakat o'git bergen-ku  
"Yig'inlarda zaifalar sukut qilsin deb"<sup>4</sup>

Abdulla Oripovning sinonimlarni o'rinli qo'llanilishini, ulardagи stilistik bo'yoqni naqadar kuchli his qilishini mana bu misolda ham ko'rish mumkin: Ne govari "von tut" il "gde-to tam"

Ono vozde, gde bog v smerennых dushax<sup>5</sup>.

<sup>2</sup> Украинка Леся, Избранное, М: изд. "Правда" 1984 г. 179 с.

<sup>3</sup> Украинка Леся, Собрания сочинений, Гос. Изд. худ. лит., Москва, 1956 ишл., 2- том, 143 с.

<sup>4</sup> Украинка Леся, Танланган асарлар, "Гафур Гулом" нашириёти, Т, 1972 ишл. 78- бет.

<sup>5</sup> Украинка Леся, Собрания сочинений, Гос. Изд. худ. лит., Москва, 1956 ишл., 2- том, 136 с.

# "YANGI O'ZBEKISTONDA TABIIY VA IJTIMOIY-GUMANITAR FANLAR" RESPUBLIKA ILMIY-AMALIY KONFERENSIYASI

Volume 1, Issue 2, July 2023

So‘zma-so‘z tarjimada ne govori – so‘zini gapirma, so‘zlama deb tarjima qilamiz. Ammo tarjimon bu yerda diniy tilda ishlataladigan “shak keltirma” so‘zini qo‘llab, asliyatning yanada kuchli va ta'sirli ekvivalentini, sininim so‘zni topgan.

Shak keltirma, anov-manov joydami deb u,  
Tangri bizning dilimizda, demak, har qayda<sup>6</sup>.

“Slovo”ni o‘zbek tiliga “so‘z” deb tarjima qilish mumkin. “Slova gospodni” so‘zining o‘zbek tiliga “tangri so‘zi” deb so‘zma so‘z o‘girsa, qandaydir g‘alatiroq chiqadi. Zero, Muso payg‘ambardan tashqari hyech bir payg‘ambar Alloh bilan gapirishmagani “Qur’oni karimda” ham ta’kidlanadi. Tarjimon ushbu so‘zni o‘zbek diniy leksikasida ishlataladigan “kalom” so‘zi bilan o‘girib, maqsadni juda chiroylifodalanagan.

**Asliyatda:** Ne vse slova ravnы drug-drugu, сын moy  
Slova gospodni nam spasayut dushu  
A ne delo lyudskie<sup>7</sup>

**Tarjimada:** Barcha kalom bir xil emas, tangri kalomi  
Odamlar madadidan ko‘ra xaloskor<sup>8</sup>.

Yuqoridagi jumlada asliyatda «сын moy» birikmasi mavjud. Mutarjim barcha joylarda ushbu so‘zlarni o‘girmaydi. Uni “bo‘tam” deya ishlatsa ma’qul bo‘lardi. Bu so‘zda xristian dindorlariga xos so‘zlashuv xususiyati ifodalanadi.

Originalda shunday misra bor: Togda мы verim, budet bojiy sud<sup>9</sup> Mana shu misradagi “bojiy sud” ni so‘zma-so‘z tarjima qilib bo‘lmaydi, mazmuni ochilmay tushunarsiz bo‘lib qoladi. Abdulla Oripov bu misraning mazmunini, “bojiy sud” frazeologik brikmasining o‘zbek tilidagi ifodasini, muqobilini juda mohirlik bilan aks ettirgan:

Shunday bo‘lar, mahshar kelar, oxirat kelar<sup>10</sup>.

Darhaqiqat, barcha diniy mazhab-u va ularning kitoblarida “mahshar, oxirat” mavjudligi yoziladi.

Tarjimon o‘xhatishlarni ham originaldagidek ta’sirlik qilib o‘gira olgan.

<sup>6</sup>Украинка Леся, Танланган асарлар, “Гафур Гулом” нашириёти, Т, 1972 йил. 80 б.

<sup>7</sup>Украинка Леся, Собрания сочинений, Гос. Изд. худ. лит, Москва, 1956 йил, 2- том, 146 с.

<sup>8</sup>Украинка Леся, Танланган асарлар, “Гафур Гулом” нашириёти, Т, 1972 йил. 190 б.

<sup>9</sup>Украинка Леся, Собрания сочинений, Гос. Изд. худ. лит, Москва, 1956 йил, 2- том, 148 с.

<sup>10</sup>Украинка Леся, Танланган асарлар, “Гафур Гулом” нашириёти, Т, 1972 йил. 93 б.

Vot do chego ya dojil! Stýd i gore  
Chто smolodu, kak niщiu, pobirayus<sup>11</sup>

Ikkinchisiz so‘zma-so‘z tarjimada “tilanchidek tilanayapman yoshligimdanoq” deb tarjima qilinadi. Mutarjimning “chol” so‘zini tashqaridan kiritishi ta’sir doirasini yanada kuchaytirgan.

Ko‘rgilik deb aytsa bo‘lar mana bu holni!  
Tilanchi chol bo‘lib qoldim yoshligimdanoq<sup>12</sup>.

Shuningdek, Abdulla Oripov “Stýd i gore” birikmasini aynan o‘girmay bitta “ko‘rgilik” so‘zi bilan ifodalashi o‘zbek tilining boyligini ham ifodalab turibdi.

Tarjimada ba’zi kamchiliklari bo‘lishiga qaramasdan, muvofiq uslub kalitini topilgan. Asarning yozilish uslubi bilan g‘oyasi hamda muallif dunyoqarashi o‘rtasidagi bog‘lanish, marom, ohang, sintaktik tarz va obrazlarga xos xususiyatlar deyarli to‘g‘ri ifodalangan.

#### **Foydalilanigan adabiyotlar ro‘yxati:**

1.Mirziyoev.Sh.M. “2017-2021 yillarda O‘zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo‘nalishi bo‘yicha Harakatlar strategiyasi to‘g‘risida”gi Farmoni – Xalq so‘zi, 2017 yil 8 fevral, №28.

2.Mirziyoev Sh.M. Adabiyot va san'at, madaniyatni rivojlantirish – xalqimiz ma’naviy olamini yuksaltirishning mustahkam poydevoridir, O‘zbekiston ijodkor ziyyolilari vakillari bilan uchrashuvdagi ma’ruza, Xalq so‘zi, 2017 yil 4 avgust,

3.Mirziyoev Sh.M. Xalqimizning roziligi bizning faoliyatimizga berilgan eng oliy bahodir – Toshkent: O‘zbekiston NMIU, 2018 yil. Abdurahmon Jomiyning “Muhabbat maxzani” kitobiga yozilgan so‘zboshi, 333-339 betlar.

4.Zaripova R– Tarjima san'ati va tarjimon mahorati, Toshkent: “Tafakkur qanoti” nashriyoti, 2021y, 132 bet.

5. Oxrimenko P.P.i O.G. Oxrimenko. Lesya Ukrainska i mirovaya kultura. Moskva -1970g. 32 bet.

6. Rashidov Asil, Lesya Ukrainska, (adabiy portret), Toshkent, Adabiyot va san'at nashriyoti, 1972 yil, 53 bet.

<sup>11</sup>Украинка Леся, Собрания сочинений, Гос. Изд. худ. лит., Москва, 1956 ишл, 2- том, 143 с.

<sup>12</sup>Украинка Леся, Танланган асарлар, “Faafur Fулом” нашиёти, Т, 1972 ишл. 94 б.

7. Salomov G'aybullo, Tarjima nazariyasi asoslari, Toshkent, O'qituvchi nashriyoti, 1983 yil.
8. Ukrainka Lesya "Tong otmoqda", T. "Mashhur press" nashriyoti, 2019 yil.
9. Ukrainka Lesya "Tanlangan asarlari", G'afur G'ulom nomidagi adabiyot va san'at nashriyoti, 1971 yil.
10. Ukrainka Lesya, Bolshaya sovetskaya ensiklopediya 30 tom, 3-ye izd. Moskva, Sovetskaya ensiklopediya, 1969—1978.